


## 2018 yil yanvar – sentabr oylarida amalga oshirilgan qurilish ishlari

2018 yilning yanvar– sentabr oylarida Samarqand viloyatida 2142,1 mlrd. soʻmlik qurilish montaj ishlari bajarilib, oʻsish surʻati oʻtgan 2017 yilning shu davriga nisbatan 109,6 foizni tashkil etdi.

Shuningdek, yirik pudrat tashkilotlari tomonidan bajarilgan qurilish montaj ishlari hajmi 35,8 mlrd. soʻmni tashkil etib, oʻsish surʻati 99,3 foizni tashkil qildi.

### Qurilish ishlari



Jami qurilish ishlarining hajmida kichik qurilish tashkilotlari va mikrofirmalar tomonidan bajarilgan qurilish montaj ishlari hajmi 48,2 foizni tashkil etdi. Kichik qurilish tashkilotlari va mikrofirmalar asosan sotish uchun moʻljallangan uy-joylarni qurish, avtomobil yoʻllarini taʼmirlash, yangi qurilish, rekonstruksiya, ijtimoiy soha obʼyektlari (maktablar, maktabgacha taʼlim muassasalari), namunaviy loyihalar asosida qurilayotgan va arzonlashtirilgan uy-joylar qurilishida oʻz faoliyatlarini amalga oshirmoqda.

### Mulkchilik shakllari boʻyicha qurilish ishlari



Mulkchilikning nodavlat shaklidagi qurilish tashkilotlari tomonidan 2214,6 mlrd. soʻmlik qurilish montaj ishlari bajarilgan boʻlib, jami qurilish ishlari hajmining 98,7 foizini tashkil qildi va ushbu koʻrsatkich oʻtgan yilning oʻsish surʻatiga nisbatan 32,6 bandga koʻpayib, 125,7 foizni tashkil qildi. Mulkchilikning davlat shaklidagi qurilish tashkilotlari tomonidan 27,4 mlrd. soʻmlik qurilish montaj ishlari bajarilgan boʻlib, jami qurilish montaj ishlari hajmidagi ulushi 1,3 foizini tashkil qildi.



2018 yilning yanvar – sentabr oylarida iqtisodiy faoliyat turlari boʻyicha bajarilgan qurilish ishlarida nodavlat mulkchilikda bino va inshootlar qurilishining ulushi 1773,6 mlrd. soʻmni tashkil qilib, oʻtgan yilning mos davriga nisbatan oʻsish surʻati 127,8 foizni tashkil qildi. Davlat mulkchiligidagi ulush esa, 2,9 mlrd. soʻmni tashkil qilib, bu oʻtgan yilning mos davriga nisbatan oʻsish surʻati 10,2 foizni tashkil qildi.

Iqtisodiy faoliyat turlari boʻyicha bajarilgan qurilish ishlarida nodavlat mulkchilikdagi fuqarolik qurilish obʻyektlarining ulushi 216,5 mlrd. soʻmni tashkil qilib, oʻtgan yilning mos davriga nisbatan oʻsish surʻati 68,3 foizni, davlat mulkchiligidagi ulush esa, 18,0 mlrd. soʻmni tashkil qilib, oʻtgan yilning mos davriga nisbatan 87,9 foizni tashkil qildi.

Shuningdek, ixtisoslashtirilgan qurilish ishlarining ulushi 124,6 mlrd. soʻmni tashkil qilib, oʻtgan yilning mos davriga nisbatan oʻsish surʻati 156,1 foizni, davlat mulkchiligidagi ulush esa, 6,6 mlrd. soʻmni tashkil qilib, oʻtgan yilning mos davriga nisbatan 211,2 foizni tashkil qildi.